IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

VOLUME 6, ISSUE 2, 2023

ITALYAN TILIDA FE'LLI FRAZEOLOGIK IBORALAR

Behzod Xudoyqulov

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Italyan tili o'qituvchisi

behzod_xudoyqulov@dtpi.uz

Haknazarov Feruz

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti,

Filologiya fakulteti talabasi

Annotatsiya

Frazeologik iboralar universal til vositalari bo'lib, ularsiz til mavjud emas. Shu o'rinda fe'lli iboralarni tahlil qilish ham alohida ahamiyatga ega. Italyan tili ham boshqa tillar kabi fe'lli iboralarga boy til hisoblanadi. Ushbu maqolada italyan tilidagi fe'lli iboralar va ularning tarjimasi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar

Ibora, frazeologik birlik, fe'l, ko'chma ma'no, tarjima.

Frazeologik birliklarni tilning uzviy ajralmas bo'lagi sifatida ko'rib chiqish frazeologiyaning umumiy va o'ziga xos qonuniyatlarini mukammal o'rganib chiqishni talab etadi. Frazeologik birliklarning semantik stilistik xususiyatlarini tahlil qilish, barchaga ma'lumki, juda ham keng qamrovli sohadir. Frazeologiya bo'yicha ilmiy tadqiqod ishlari rivojiga ko'plab tilshunoslar o'zlarining munosib hissalarini qo'shishgan. Frazeologiya tilshunoslikning alohida bir qismi bo'lib shakllanganiga hali ko'p vaqt bo'lmagan bo'lsada, uning kelib chiqish tarixi til taraqqiyotining ilk bosqichlariga borib taqaladi. Ilmiy tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, frazeologik birliklar til bilan birga paydo bo'lib, til bilan birgalikda rivojlanib kelgan. Ammo jamiyatning turli davrlarida ularning o'rni va ahamiyati turlicha baholanadi.

Frazeologik iboralar tuzilishi tomondan so`z birikmasi, sodda va qo`shma gap shakllarida keladi: 1. So`z birikmasi shaklidagi frazeologik ibora. 2. Sodda gap shaklidagi frazeologik ibora. 3. Qo`shma gap shaklidagi frazeologik ibora. Frazeologizm tarkibida qatnashgan so`zlar orasidagi sintaktik bog`lanish o`z kuchini saqlaydi, faqat ichki bo`ladi. Iboralarning paradigmatik shakllari (turlanishlari, tuslanishlari kabilar) dastavval ularning qaysi turkumga mansub ekanligi bilan belgilanadi. Iboralarning asosiy qismini fe'l frazeolo-gik birliklar tashkil etadi. O`zbek tilidagi iboralarning leksik va grammatik variantlari mavjud. Leksik variantlar quyidagi turlarga bo`linadi. a) leksik almashtirish: og`ziga talqon solmoq, og`zi so`k solmoq. b) leksik tanlash: daryodan bir tomchi –daryodan tomchi. d) leksik qo`shish: esini tanimoq – es-hushini tanimoq. Bu variantlar orasida leksik almashtirish esa murakkab hisoblanadi.

Frazeologizmlar, so`zlar kabi, yaxlit bir ma'no ifodalasada, lekin frazeologik ma'no jihatdan leksik ma'nodan farq qiladi. Frazeologik ma'no qo`shimcha attenkalardan iborat bo`ladi. Belgi,

VOLUME 6, ISSUE 2, 2023

harakat kabilar haqida frazeolo-gizm ifodalaydigan ma‘lumot frazeologik ma‘no deyiladi. Frazeologik ma‘noning hajmi leksik ma‘noning hajmiga nisbatan keng, murakkab bo`ladi. Ko`pgina frazeologizmlar ma‘nosida so`zning ma‘nosi bo`lmagan komponent hisoblanadi.

Iboralarning paradigmatik shakllari (turlanish, tuslanish kabilar) dastavval ularning qaysi turkumga mansub ekanligi bilan belgilanadi. Iboralarning asosiy qismini fe’l frazeologik birliklar tashkil qiladi. Fe’l iboralarning ichki sintaktik qurilishi birikmaga teng bo‘lsa, bunday fe’l ibora tuslanadi: bosh egdim, bosh egsin kabi. Agar iboraning ichki sintaktik qurilishi gapga teng bo‘lsa, bunday fe’l ibora tuslana olmaydi, doim 3-shaxs shaklida turadi. Bu ikki tur fe’l iboralar tuslanishi jihatdan farq qiladi, ammo mayl, zamon kabi kategoriyalarning formalarida o`zgarish har ikkisida paydo bo‘laveradi: bosh egsam, ko‘z tegsa, bosh egibdi, ko‘z tegibdi kabi. Bunday iboralarning ko‘pi bo‘lishli va bo‘lishsiz aspektda ham kelaveradi: bosh egaylik va bosh egmaylik kabi. Fe’l frazeologik birliklarning leksik tarkibida, fe’l so’z komponentidan tashqari, boshqa turkum so`zi ham qatnashadi. Bunday so`z komponent ko‘pincha ot bilan ifodalanib, uning tarkibida egalik affiksi vositasida fe’l ibora uch shaxsdan biriga nisbat beriladi: ko‘zimni yog’ bosdi, ko‘zingni yog’ bosdi, kozini yog’ bosdi kabi. Gapga teng qurilishli iboralarda shaxs son ma’nosi tuslovchi bilan emas, balki egalik affiksi bilan ifodalanadi. Birikmaga teng qurilishli fe’l iboralarda esa shaxs-son ma’nosini tuslovchi ham, egalik affiksi ham ifodalaydi.

Italyan tilida ham fe’lli iboralar anchagina bo‘lib ularning semantik jihatlarini tahlili qilish qiziqarli mavzulardan biridir. Italyan tilidagi fe’lli iboralarni o‘rganish jarayonida andare, dare, prendere kabi fe’llar ishtirokidagi iboralarni ko‘proq ishlatilishiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Ularni quyidagi misollar orqali tahlil qilishimiz mumkin:

Fe’lli frazeologizmlar; modi di dire con i verbi - fe’lli iboralar:

- *Dare una mano - Yordam qo’lini cho’zmoq/yordam bermoq.*
- *Prendere per mano - Yordam bermoq, to’g’ri yo’lni korsatmoq.*
- *Essere al settimo cielo- Baxtga/ quvonchga to’la bo’lmoq.*
- ***Dare coraggio -** Ruhlantirmoq.*
- *Andare in fumo - Barbod bo’lmoq*
- *Prendere per mano - Yordam bermoq, to’g’ri yo’lni korsatmoq.*
- ***Dare agio - Imkoniyat bermoq, yengillik bermoq.***
- ***Dare ascolto a qualcuno - Birovga quloq solmoq/Maslahatiga quloq solmoq***
- ***Dare alla luce -** Yuzaga chiqarmoq/ yuzaga keltirmoq*
- ***Dare a vedere -** Sezdirmoq, namoyon qilmoq.*
- ***Dare coraggio -** Ruhlantirmoq.*
- ***Dare da fare -** Vazifa bermoq.*
- ***Dare da pensare -** Tashvishlanmoq.*
- ***Dare esca al fuoco -** Vaziyatni yanada yomonlashtirmoq*
- ***Dare fiato alle trombe -** Yangilikni/xabarni keng ravishda (hayqirib)tarqatmoq*
- ***Dare fuori di cervello - Aqldan ozmoq***
- ***Dare i numeri -** G’alati tarzda gapirmoq.*
- ***Dare l’anima per qualcosa -** Imkoni boricha kirishmoq, o’zini bag’ishlamoq.*

VOLUME 6, ISSUE 2, 2023

- ***Dare l'anima al diavolo -*** *Ko'zlagan maqsadiga erishish uchun har qanday narsaga tayyor bo'lmoq.*
- *Prendere all'amo - Aldamoq (ishontirmoq).*
- *Prendere delle grane - Bezovtaligi bo'lmoq*
- *Prendere di punta - Qat'iyatlilik bilan yuzlanmoq*
- *Prendere due piccioni con una fava - Bir o'q bilan ikki quyonni urmoq.*
- *Prendere il coltello per la lama - O'ziga nisbatan zararli ravishda harakat qilmoq.*
- *Prendere in giro - Mazax qilmoq*
- *Prendere la fortuna per i capelli - Yaxshi vaziyatni qo'ldan boy bermaslik.*
- *Prendere l'anguilla per la coda - So'ngi daqiqalarda qiyin muammoni/masalani yechmoq.*
- *Prendere lucciole per lanterne - Noto'g'ri tushunish, yanglishish*
- *Prendere nella rete - Biror kishini aldamoq, xiyla qilmoq*
- ***Prendere nero per bianco - Bir narsani boshqasi bilan adashtirmoq.***
- *Prendere per i fondelli - Mazax qilmoq*
- *Prendere per il bavero - Ustidan kulmoq*
- *Prendere per le mele - Mazax qilmoq.*
- *Prendere per oro colato - Juda soddalik bilan ishonmoq, laqqa tushmoq.*
- *Prendere sotto gamba - Yengil qaramoq, muhim emas deb bilmoq*
- *Prendere un granchio - Qattiq adashmoq, xato qilmoq*
- *Prendere una gatta da pelare -Hal qilish qiyin bo'lgan muammoga ega bo'lmoq.*
- *Prendere una papera - Talaffuzda adashmoq.*
- *Prendere (o cogliere) la palla al balzo - Qulay vaziyatdan oqilona foydalanib qolmoq.*
- *Prendere (o pigliare) per il culo - Mazax qilmoq*
- *Prendere (o trattare) a pesce in faccia - Birovni haqorat qilmoq*
- *Prendersela con qualcuno - O'ziga gapirolmay,boshqa birovdan g'azabini/alamini olmoq*
- *Prendersela - Xavotirlanmoq/tashvishlanmoq.*
- *Prendersi il boccone - O'zini aldashga qo'yib bermoq.*
- *Prendersi una sbornia - Juda mast/sarhush bo'lmoq.*
- *Prendersi una gatta da/a pelare - Qiyin/murakkablikka to'la ishni boshlamoq.*
- *Prendersi uno spaghetto - Kuchli qo'rquvni boshidan o'tkazmoq.*

Frazeologizmlar semantik jihatdan so`zlardan farqli belgi xususiyatlarga ega bo`lgani uchun ham, tilda paydo bo`lgan va yashab kelmoqda. O`zaro bog`langan bu so`zlar mohiyatiga ko`ra birikmaga yoki gapga teng bo`ladi. Bunday birikma yoki gapdan yaxlitligicha anglashiladigan frazeologik ma'no uni sintaktik birlik deb emas, balki semantik birlik deb qarashga olib keladi. Shu sababli, birikmaga yoki gapga tenglik haqida gapirganda iboraning ichki sintaktik qurilishi ko`zda tutiladi; ibora tarkibini sintaktik tahlil qilish nutq birligining tarkibini emas, balki til birligining tarkibini tahlil qilish bo`ladi. Umuman, ibora tarkibida qatnashgan so`zlar orasidagi sintaktik bog`lanish o`z kuchini saqlaydi, faqat ichki bo`ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Averbux K.Ya. Leksicheskie i frazeologicheskie aspekt perevoda . K.Ya. Averbux O.M. Karpova. – M.: Akademiya, 2009. – 176 s.

VOLUME 6, ISSUE 2, 2023

2. Boltaeva B. I. O‘zbek tili frazeologik birliklarining transformatsiyasi. Fil.fan disser avtoreferati. Samarqand, 2019.
3. Lapucci C. Dizionario dei modi di dire della lingua italiana // 1990.
4. Oltiev T., Xudoyqulov B. Italyan tilidagi iboralarning tarjimasi" lug'ati. – 2021.
5. Xudoyqulov B. A REVIEW ON THE STUDY OF PHRASEOLOGICAL EXPRESSIONS IN ITALIAN LANGUAGE //Gospodarka i Innowacje. – 2023. – T. 33. – C. 212-214.
6. Xudoyqulov B. Translation of Italian Phraseologisms into Uzbek Language //Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science. – 2023. – T. 4. – №. 3. – C. 99-101.

WORDLY
KNOWLEDGE